

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI

Mehridin Yunusovich Haqqulov

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o‘qituvchisi.

mexriddinhaqqulov@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15027130>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asrda Movarounnahrda Chig‘atoy ulusi davrida Movarounnahrda o‘zaro nizolar va tarqoqlikni tugatish maqsadida Amir Temur kurash boshlayili. 1365-yilda Movarounnahr hukmdori deb tayinlangan Ilyosxoja qo‘shinlari bilan Temur va Husaynning ittifoqchi qo‘shinlari o‘rtasida Chirchiq daryosi bo‘ylarida bo‘lib o‘tgan jangda Ilyosxoja qo‘shinlarining qo‘li baland keladi va u Xo‘jand, Jizzax shaharlarini egallab, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandda bu paytda sarbadorlar harakati mayilonga chiqib, mo‘g‘ullarning qo‘shiniga qarshi qaqshatqich zarba beradi.

Tayanch so‘zlar: Amir Husayn, Balx, Amir Temur, Amudaryo, Sirdaryo, Samarqand, Xorazm, Kat, Mo‘g‘ullar, Oltin O‘rda, Hirot, Saraxs, Jom, Eron, Iroqi Ajam, Kavkaz, Xalab, Damashq, Bag‘dod, Boyazid Yildirim, Kichik Osiyo, Ulug‘bek.

HISTORICAL GEOGRAPHY OF THE ERA OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

Abstract. In this article, in the 14th century, during the reign of the Chigatai Ulus in Movarounnahr, Amir Temur launched a campaign to end the internal conflicts and disunity in Movarounnahr. In 1365, in the battle between the troops of Ilyas-Khoja, who was appointed the ruler of Movarounnahr, and the allied troops of Temur and Hussein on the banks of the Chirchik River, Ilyas-Khoja's troops came out on top and he captured the cities of Khujand and Jizzakh and marched on Samarkand. In Samarkand, at this time, the movement of the Sarbadars was gaining momentum and dealt a crushing blow to the Mongol army.

Keywords: Amir Husayn, Balkh, Amir Temur, Amu Darya, Syrdarya, Samarkand, Khorezm, Kat, Mongols, Golden Horde, Herat, Sarakhs, Jam, Iran, Iraq, Caucasus, Aleppo, Damascus, Baghdad, Bayezid Yildirim, Asia Minor, Ulugbek.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ ЭПОХИ АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ

Аннотация. В данной статье в четырнадцатом веке в Мовароуннахре в период Чигатойского улуса Амир Темур начал борьбу за прекращение взаимных споров и разобщенности в Мовароуннахре. В 1365 году в битве между войсками Ильяшоджи, назначенного правителем Моваруннахра, и союзными войсками Темура и Хусейна войска Ильяшоджи одержали верх и двинулись на Самарканд, заняв города Ходжент и Джизак.

В это время в Самарканде движение полководцев вышло на поле боя и нанесло сильный удар по монгольской армии.

Ключевые слова: *Амир Хусейн, Балх, Амир Темур, Амударья, Сырдарья, Самарканд, Хорезм, Кат, монголы, Золотая Орда, Герат, Сарахс, Джам, Иран, Иракский Аджам, Кавказ, Алеппо, Дамаск, Багдад, Баязид Йылдырым, Малая Азия, Улугбек.*

Amir Temurning nufuzi ortib borayotganidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. 1370-yilda Amir Temur Balxga yurish qdib, Amir Husaynni taslim qiladi. 1370-yilning 10-aprelida Amir Temur Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilinadi. Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'hb olgach, o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalo 1370-yilning may oyida Samarqandga qaytib shaharni tiklayili. Maxsus qo'shin tuzib, davlat chegaralarini kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni birlashtirib, o'ziga bo'ysundiradi.

Mo'g'ullar davrida Xorazm ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan shimohy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat bo'lgan janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysungan. 1371-yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik hamda o'zaro nizolarga barham berib, Shdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Keyinroq Shibirg'on vdoyati, Balx va Toshkent vdoyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladdar. Yigirma yil (1371-1390 yillar) mobaynida Amir Temur Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qdib, mo'g'ul hukmdorlari ustidan g'alaba qozondi. 1395-yilda Shimoliy Kavkazning Tarak daryosi bo'yida Amir Temur va Oltin O'rda xoni To'xtamishxon qo'shini o'rtasidagi jangda Amir Temur g'alaba qozonadi va Oltin O'rda hokimiyatiga chek qo'yiladi.

1381-yilda Hirot, Saraxs, Jom shaharlari, keyinroq esa Eronning katta qismi Amir Temur hokimiyatiga bo'ysundirdadi. Uch yillik (1386-1388-yillar) harbiy yurishlar natijasida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimohy qismi, Gurjiston va Armanistondagi yerlar egallanadi. 1392-1396-yillardagi besh yillik urush davomida Amir Temur G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egahayili. 1398-1399-yillarda Amir Temur Hindistonga yurish qdib, bu hududni ham o'z tasarrufiga kiritadi. 1399-1404-yillardagi yetti yillik urush davrida esa Shomning Xalab, Kumis, Baalbek, Damashq kabi shaharlari, Bag'dod hamda Turkiyaning katta qismi egallanadi. 1402-yilda Anqara yaqinidagi jangda Boyazid Yildirim qo'shini yakson qilingach, Kichik Osiyo ham Temur hokimiyatini tan oladi.

1405-yili Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash ayj oidi. Amir Temurning bu kurashda g'ohb chiqqan o'g'h Shohruh Samarqand taxtini egadadi va 1409-yilda o'g'li Ulug'bekni Samarqand taxtiga o'tqazib, Movarounnahr hukmdori etib tayinladi.

Ulug'bek davrida (1409-1449-yillar) mamlakatda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Ammo Mirzo Ulug'bek o'ldirilganidan keyin taxt uchun kurashlar yana ayj oidi. 1451-yili Samarqand taxtini Mironshohning nabirasi Abu Said Mirzo egalladi. Uning vafotidan (1469-yil) keyin hokimiyat uchun kurashlar yana avj oidi, feodal tarqoqlik kuchayildi.

Dashti Qipchoqda yashagan Shayboniyxon qo'shinlari Movarounnahrda yurish boshladdi.

Bu vaqtda, ya'ni 1500-yili Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxtini egallab, uni mustahkamlay boshladi. Biroq 1501-yili Shayboniyxon bdan to'qnashuvda yengilib, Hindistonga ketishga majbur bo'ldi. Shunday qilib qudratli temuriylar saltanati inqirozga uchradi.

Amur Temur davlatining siyosiy tuzumi haqida gapiradigan bo'lsak, u o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foyilalandi. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzdushiga ko'ra ko'pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Qudratli hukmdor tarix faniga ixlos qo'yganidan bo'lsa kerak, qadimgi va o'rta asr Sharq mamlakatlaridagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma'muriy usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga ega edi. Boshqaruv davlat boshqaruv tizimi qo'l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan bo'lib, bu sohada tajribalar o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlarida keng qo'llanadigan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi. Boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lgan. Dargohni oliy hukmdor boshqargan.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo'lgan.

Oliy devonda — ijroiya hokimiyatida bosh vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lgan va devonbegiga hisobot berib turgan. Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, qoziy axdos (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri a'zam (vaqf yerlari mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhassil (soliq undiruvchi), tavochi (asosiy qo'shnlarni to'plash ishiga mutasaddi amaldor), qorovulbegi, qutvol (qal'abon), muhtasib (shariat qoidalari ijrosini, bozor tartiblarini nazorat qduvchi) va boshqalar bo'lgan. Shuningdek, dargohda bosh hojib, hojiblar, xazinabon, xonsolarjibachi, qushchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dorixonachilar bo'lgan. Amir Temur davrida Movarounnahrda aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bdan oddiy aholining tinch va osuda yashab, mehnat qilishiga shart-sharoitlar yaratddi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u mamlakatda qayta tiklash ishlari, obodonchilik, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratdi. Turli toifaga mansub mulk sohiblarini bir qo'l ostida birlashtirdi. Qattiq intizom har qanday zodagonni o'z hukmdori oldida bosh egishga majbur qdar edi. Mehnatkash xalq, jumladan hunarmand qatlamiga mansub kishdarning yashash darajasi ancha yaxshidandi. Shaharlarda, madaniyat markazlarida yaratuvchdik, obodonchdik ishlari nihoyatda kuchayib ketdi. Amir Temur davlatining sarhadlari keng edi. U nafaqat hozirgi O'rta Osiyo balki, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Kavkaz, Qozog'iston, Iroq singari mamlakat va hududlarni o'z tarkibiga olgan edi. Ijtimoiy tuzum masalasida to'xtalganimizda, aynan shu joylardagi aholining turh qatlamlari, ularning o'zaro nisbati, bir-biriga aloqadorligini nazarda tutishimiz mumkin. Ijtimoiy tuzumni biz mulk egaligisiz tasavvur qila olmaymiz. XV asrda ziroatchilik bilan mashg'ul qishloqahli orasidan ma'lum qismi imtiyozh haq-huquqlar egasi bo'lgan. Ular davlatga juda oz miqdorda soliq to'lashgan. Aholining juda katta qismini ijarachi-chorikorlar va jamoatchi dehqonlar tashkd qilgan.

Qishloqlar jamoa yoki qariya deb nomlangan. Uning mulki butun jamoa ahliga qarashli edi. Hunarmandchilik sohasida asosiy ishlab chiqaruvchi ijtimoiy toifa vakih erkin hunarmandlar bo'lgan. Ular shaharda yashovchi savdogarlar bdan bh qatorda madaniy markazning o'rta hol toifalari vakdlari sanalganlar. Bular jumlasiga amaldorlar va o'rta hoi islom peshvolarini ham kiritish mumkin. Amir Temur o'ziga tobe mamlakatlarning sipohu raiyat kayfiyatini, turmushini biror kishi ularga jabr sitam qdsa, ularni jazolash tadbirlarini o'z qonunlarida qayil etib o'tgan.

Har bir shaxs o'z qobiliyati va o'z xohish hodasiga ko'ra, shuningdek, bilim va tajribasiga muvofiq muayyan vazifani egallay olar edi. Albatta, u o'sha ishni va amalni uddalay olsa, o'z harakatiga muvofiq ijtimoiy qatlamning yuqoriroq darajasiga ko'tarilardi. Temuriylar davrida esa mamlakatda tez-tez sodir bo'lib turadigan ichki urushlarga qaramasdan XV asrda ham Movarounnahr va Xuroson shahar hamda qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshirdadi. Bu davrda temuriylar va ularning vdoyat hokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus vodiysida hamda Hirot va uning uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etdib, ayrim dehqonchilik vdoyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshidandi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan, Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Bu kanal orqali Zarafshon daryosi oqimining bir qismi bu davrda kam suvli Qashqadaryo vohasiga tashlanib, uning adog'ida joylashgan dehqonchdik yerlari suv bdan ta'minlanadi. Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlari bo'ylab olib bordgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, mo'g'uUar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan voha suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklanadi.

Uning dehqonchilik yer mayiloni bh muncha kengayili. Ulug‘bek hukmronlik qilgan davrda Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqardib, yangi yerlar o‘zlashtiriladi. Butun asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchdikning asosan to‘rt shakldagi “mulki devoniy” — davlat yerlari, “mulk” — xususiy yerlar; “mulki vaqf” - madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar va nihoyat “jamoat yerlari” bo‘lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarda avvalgidek mamlakat hukmdori Sulton yoki amirlar egalik qdardi.

Xulosa

Temuriylar davrida mamlakat shaharlarida, xususan Samarqand va Hirotida zargarlik rivoj topadi. Shahar zargarlari orasida oltin, kumush, va jez qotish-malaridan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasayilgan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov beruvchi mohir ustalar soni ko‘payadi. Odatda naqshinkor badiiy buyumlar boylik hashamlari hisoblanib, ular faqat mulkdor tabaqalargagina mansub edi. Bunday qimmatbaho jihozlarni yasayilgan hunarmand-zargarlar mutlaq mulkdorlarga xizmat qilishar va ular bilan yaqindan aloqada bo‘lardi. Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, qog‘oz ishlab chiqarish alohida o‘rin tutadi.

Shahar yaqinida, Obirahmat anhuri sohilida qog‘oz ishlab chiqaradigan maxsus objuvozlar va korxonalar bo‘lgan.

Samarqand qog‘ozi o‘rta asr sharqi hattotligida g‘oyat mashhur bo‘lib, uning ma‘lum bir qismi chet o‘lkalarga chiqarilgan. Odatda shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg‘ol shaklida in‘om etilgan. Temuriylar davrida Movarourmahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko‘pgina shaharlari aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bdan o‘rta asr Sharqining namunali hunarmandchilik va gavjum savdo markaziga aylanadi.

REFERENCES

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O ‘RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO‘LGAN “TURKISTON MUXTORIYATI”. *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.

5. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
8. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
9. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
10. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
11. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
12. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
13. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
14. Ярашова, М. (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
15. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛИЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
16. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>

17. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
18. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
19. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING “AL-JOME’AS SAHIH” ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
20. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
21. Srojeva, G., Haqqulov, M., & Gulyamov, A. (2025). KUDZULA KADFIZ BOSHCHILIGIDA KUSHON IMPERIYASIGA ASOS SOLINISHI VA BU IMPERIYANING RAVNAQI. *Modern Science and Research*, 4(2), 109-117.
22. Yuldosheva, F. (2024). MIRZO ULUG'BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 741–749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/-research/article/view/58564>
23. Yuldosheva , F. . (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788–791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>
24. Yuldosheva , F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING “QADIMGI TURKLAR” ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php//article/view/3908>
25. Yuldosheva , F. . (2025). MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MILLATNING O'Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG'ONISH DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420–427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60832>
26. Yuldosheva, F. & Abdihamidova F. (2025). BEHBUDIYNI KIM O'LDIRGAN?. *Modern Science and Research*, 4(1), 359–366. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63681>
27. Yarashova, M., Yuldosheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA'LIM OLISH TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA'LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73-80.

28. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
29. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
30. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
31. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
32. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
33. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
34. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In *Психология образования будущего: От традиций к инновациям* (pp. 112-114).
35. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(10), 49-51.
36. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
37. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
38. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
39. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>

40. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
41. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
42. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
43. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.
44. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
45. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
46. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARHITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
47. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
48. Vahobovna, S. G. (2024). Canada during the world economic crisis of 1929-1933. *Ta'Lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali*, 4(4), 48-54.
49. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
50. Gulbahor, S. (2023). Continuity In Education-Chief Mezon. *Modern Science and Research*, 2, 834-839.
51. Sadullayev, U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376-385.
52. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO MUZEYINING II JAHON URUSHIGACHA BO 'LGAN DAVRDAGI FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 92-99.
53. Srojeva, G. (2024). Attention Paid To Preschool Educational Institutions In New Uzbekistan. *Modern Science and Research*, 3(2), 258-266.

54. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 276-280.
55. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 276-280.
56. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 366-375.
57. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldosheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO 'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81-91.
58. Srojeva, G. (2024). International Cooperation In The Field Of Education. *Modern Science and Research*, 3(2), 1041-1050.
59. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>
60. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 100-108.